# Surxondaryoda Davlat bayrogʻi qabul qilingan kun keng nishonlanmoqda



Surxondaryoda Davlat bayrogʻi qabul qilingan kun keng nishonlanmoqda

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida tantanali marosimlar tashkil etilmoqda.
Bugun erta tongda viloyat markazidagi “Bolajon bogʻi” hududida joylashgan katta bayroq ostidagi maydonda tantanali tadbir boʻlib oʻtdi. Tadbirda viloyat hokimining oʻrinbosari I.Saparov, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik faollari ishtirok etishdi.
Termiz shahri markaziy koʻchalari boʻylab harbiylar, yoshlar, jamoatchilik vakillari ishtirokida marshlar oʻtkazildi.
Joylarda Davlat bayrogʻi qabul qilingan kun munosabati bilan tadbirlar davom etmoqda.



Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown